

Abdulaziz XUJAQULOV,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

E-mail: kundalikkun@mail.ru

Tel: +998 906 50 60 70

"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsent, PhD Eshdavlatov Akmal Eshpo'latovich iqrizi ostida

QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASB TANLASH VA KASBIY SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Annatatsiya

Maqolada, qishloq xo'jaligi sohasida kasb tanlashga yo'naltirish, agrar sohaning ahamiyati, qishloq xo'jaligi sohasida erishiladigan yutuqlar tahlil qilingan va shaxsning kasb tanlash jarayonidagi kasbiy ta'limga tayyorlanish, shuningdek kasbiy faoliyat jarayonidagi rivojlanish orqali kasbiy shakllanishi, kasbiy shakllanish yo'li va tezligi bir guruh ya'ni yosh, individual-psixologik, kasbiy texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liqligi bayon etilgan.

Shuningdek bizning ishimizda qishloq xo'jaligi sohasida ishlovchilarining o'z kasbini sevib, faoliayti natijasida katta hosil olinsa, chorva mollari yaxshi semirtirilsa, fermerning mehnati unga nafaqat sezilarli darajada moddiy, balki ma'naviy qoniqish keltirishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Psixologik, agrar, mehnat, xususiyat, soha, tadqiqot, kasb, shakillanish, tadqiq, jarayon, rivojlanish, individ.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ВЫБОРА И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА

Annatatsiya

В статье даны рекомендации по выбору профессии в сфере сельского хозяйства, важность аграрного сектора, анализируются достижения в области сельского хозяйства и подготовка к профессиональному образованию в процессе выбора человеком профессии, а также профессиональное становление через развитие в процессе профессиональной деятельности, констатируется, что путь и скорость профессионального становления зависят от одной группы - возрастных, индивидуально-психологических, профессионально-технологических и социально-экономических факторов.

Также в нашей работе установлено, что если работники сельского хозяйства любят свою профессию и получают в результате своей деятельности большой урожай, если скот хорошо откормлен, труд земледельца приносит ему не только значительный материал, но и духовное удовлетворение.

Ключевые слова: Психологический, аграрный, трудовой, особенность, область, исследование, профессия, становление, изучение, процесс, развитие, индивидуальный.

PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF PROFESSIONAL CHOICE AND PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS IN THE FIELD OF AGRICULTURE

Annatatsiya

The government provides recommendations on the choice of professions in the field of agriculture, the importance of the agricultural sector, analyzes achievements in the field of agriculture and preparation for vocational education in the process of choosing a profession by a person, as well as professional development through development in the process of professional activity, it is stated that the path and speed of professional development depend on one group - age, individual psychological, professional-technological and socio-economic factors.

Our work has also established that if agricultural workers love their profession and receive a large harvest as a result of their activities, if the livestock is well fed, the farmer's work brings him not only significant material, but also spiritual satisfaction.

Key words: Psychological, agricultural, labor, feature, area, research, profession, formation, study, process, development, individual.

Kirish. Respublikamiz aholisining aksariyati agrar xo'jalik sohasi bilan shug'ullanayotganligi tufayli uning tarmoqlariga oid mutaxassislarni tayyorlash uchun kasbning psixologik xususiyatlari, mehnat ko'nikmalari va malakalari bilan bo'lg'usi ixtisos egalarini qurollantirish muhim ijtimoiy vazifalardan biridir. Bo'lg'usi agronomni kasbiy tayyorlash, kasb-hunar oldiga qo'yiladigan talablarga mutanosib insonlar qilib shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muammo bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonning issiq iqlim sharoitining biologik-tibbiy jihatlari birmuncha o'rganilganligiga qaramay, ularning mexanizmlari, akseleratsiya hodisasi, qishloq aholisining jismoniy rivojlanishi, mehnatkashlarning issiq sharoitga moslashishlari, mehnatni tashkil qilishning oqilona yo'llari, mehnat unumdarligini oshirishning samarali usullari, ekologiyaning o'zgarishiga o'xshash muammolar qariyb o'rganilmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning asoslari bo'yicha darsliklar yaratgan olimlar U.S.Nishonaliyev, D.Yormatova, T.X.Ikromov, U.Xoldorov, I.Husanov va boshqa olimlarning ishlaridan mehnat ta'limga moslashhtirilgan holda, tarixiy va zamonaviy, uslubiy-ilmiy va ommabop materiallardan, barcha ensiklopediyalardan foydalanish orqali kengaytirilgan darslik tuzishgan. Tuzilgan darslik asosan qishloq xo'jalik ekinalari va hayvonlarni parvarish qilish texnologiyalarini yoritishga qaratilgan.

Zamonaviy fermer qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha tanlagan yo'nalishi va egallagan kasbiga muvofiq, eng kamida, ishbilarmon va o'z kasbining ustasi bo'lishi lozim. Siz qishloq xo'jaligi yo'nalishida xohlagan kasbni egallashingiz mumkin (agronom, chorvador, zootexnik, asalarichi va shunga o'xshash). Agar sizda ishbilarmonlik xususiyati, qobiliyati bo'lsa, qishloq xo'jaligi sohasida o'z biznesingizni tashkil eting, lekin yaxshi biladigan va tushunadigan sohangizda.

Qishloq xo'jaligi mutaxassisidan fermerning farqi shundaki, u - o'zi o'ziga direktor. U fermer xo'jaligini xususiy firma sifatida ochadi. Ko'p hollarda unda asosan o'zining oila a'zolari va yaqin qarindoshlari ishlashadi. Oldin qishloq xo'jaligida turli lavozimda ishlaganlar orasida: "O'zim uchun ham ishlab ko'ray", - degan maqsadda fermer bo'lganlar ham ko'p uchraydi.

Tajribali fermerlar bugun dehqonchilik bilan birga chorvachilik va boshqa bir qancha yo'nalishda ish olib bormoqdalar. Aytaylik, bankdan maxsus kredit olib, kichkina chorvachilik majmuasini qurish. Albatta, chorvaning har bir turi bo'yicha ularni boqish sharoiti ham zarur. Chorva turini tanlashda, xo'jalikning joylashgan joyi ham muhim ahamiyatga ega. Qayerdadir qoramol, qayerdadir qo'ychilik bilan shug'ullanish foydali. Bugun fermerlar baliqchilik, hattoki, oshxonalar katta hohish bilan

oladigan bedana go'shti va tuxumini ham etishtirmoqdalar. Turli xildagi kolbasa va dudlangan go'sht mahsulotlarining aksariyati ham fermerlar mehnatining mahsulidir.

O'z - o'zidan savol tug'iladi: agar rivojlanish istiqboli shunchalik aniq va keng bo'lsa, nega O'zbekistonda fermerlik shu kunga qadar mehnat unumdorligi bo'yicha chet ellik hamkasblari darajasiga chiqqa olmayapti? Mamlakatimizda mehnat unumdorligi bo'yicha chet el fermerlaridan o'zib ketganlar ham kam emas. Bu holda ko'p narsa fermerlar safini to'ldiradiganlarning shaxsiy va kasbiy darajasiga bog'liq. Axir, dehqonchilik ishi, hatto barcha quayliklar muhayyo bo'lgan taqdirda ham, oson emas. Lekin oziq-ovqat doimiy iste'mol tovari (moli) va oxirgi o'n yillarda ularning qiymati, nooziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan ko'proq va tezroq oshmoqda. Agar bugungi kunda fermer yetishtirgan mahsulot sotuvni muammosi bo'lmaganda edi, fermerga faqat sidqidildan aql bilan o'z xo'jaligida mehnat qilish qolardi, xolos. Lekin buning uchun maxsus agronomiya, chorvachilik bo'yicha oliy ma'lumotli fermer ham o'zining malakasini muntazam oshirib borishi zarur. Maxsus jurnallar o'qishi, agrotexnik konferensiylar, ko'rgazma-yarmarkalarida ishtirok etishi, o'zining hamkasblari bilan internet orqali maslahatlashib turishi kerak. Bu kasb eng mas'uliyatlari va kattiq mehnatni talab etadigan kasblardan biridir.

O'quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo'llash shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish to'g'risidagi hujjatlarda o'quvchilarni mustaqil kasb tanlashga (o'z imkoniyatlarini o'zi baholash orqali) o'rgatish juda muhim va zarur vazifa ekanligi ta'kidlanadi.

Shunga ko'ra psixolog olimlar, metodistlar, tashxis markazi xodimlari keng jamoatchilik bilan birlgilikda kasbga doir bilimlarni keng tashviqot qilishlari, kasb- kor tanlashga oid yo'l-yo'riqlar va metodlar ishlab chiqishlari, kasb tanlash maslahatlari rasmiy shoxobchalar kengaytirilishi, professiogramma, professiografiya, psixogrammalar ko'lami orttirilishi lozim. Keyingi yillarda o'tkazilgan kuzatishlar Respublikamizda yoshlarni agrar kasbga yo'llash sohasida talay kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Agrar sohadagi kasblarga bag'ishlangan o'quv-uslubiy adabiyotlar va kasb-hunar to'g'risidagi kinofilmlar kamliyi, psixologik-diagnostik tadqiqotlar o'tkazishga yordam beradigan zamonaviy apparat va asboblar bilan ta'minlash yaxshi yo'nga qo'yilmaganligi, shaxsning muayyan kasbga yaroqlilagini aniqlash borasida ilmiy-tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmayotganligi shunday kamchiliklar jumlasiga kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kasb psixologiyasi shaxsning kasbiy jixatdan shakllanishini o'rganadi. Bunda shaxs rivojlanishi kasbiy shakllanishi sifatida ko'rib chiqiladi. Kasb psixologiyasi-mehnat psixologiyasining kasblarni psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan quyiladigan psixologik talablarni o'rganish xamda ilmiy tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi bo'limidan iborat.

Shaxsning psixomotor motivatsion va kognitiv sifatlariga e'tibor berilgan xolda kasbiy yutuqlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Inson va uning kasbi o'rtasidagi, shuningdek, kasbiy vazifasi va kasblar olami tuzilmasi o'rtasidagi munosabatlar taxlil kilinadi. Kasb psixologiyasi inson uchun kasbiy faoliyatning axamiyatini o'rganib, shaxsning kasbiy shakllanishini tadqiq etadi, shuningdek, yoshlikda kasbiy tasavvurlarni rivojlanishini, kasbiy yetuklik determinantalarini ayniqsa, kasbga kirishish va uning xayotga bo'lgan ta'sirini o'rganadi. Kasb psixologiyasining muxim aspektlari - bu kasbiy faoliyatning taxlili, kasbiy maqsadlar, vaziyatlar, qiyinchiliklarini o'rganishi, kasbiy talablarni aniqlashdan iborat.

Kasb psixologiyasining asosiy kontseptual qoidalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Asosiy tushunchalar	Kontseptual qoidalar
Kasbiy shakllanish	Kasbiy shakllanish - bu shaxsning kasb tanlash jarayonidagi kasbiy ta'limga tayyorlanish, shuningdek kasbiy faoliyat jarayonidagi rivojlanish xisoblanadi .
Kasbiy shakllanish turlari	Kasbiy shakllanish yo'li va tezligi bir guruh omillar bilan belgilanadi. Ularga yosh, individual-psixologik, kasbiy texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni kiritish mumkin.
Kasbiy rivojlanish	Kasbiy rivojlanish - bu yo'nalish saloxiyat va muxim kasbiy sifatlarning boyib borishi, mehnat faoliyati samaradorligini oshirib borish bilan belgilanadi.

Kasbiy shakllanishining psixologik jixati.	Shaxsning kasbiy rivojlanish va kasbiy jixatidan o‘zini topa olish uchun o‘z ustida ishlashi va turli masalalarni hal qilish uchun bor kuchini sarflash, shart-sharoitlar xamda imkoniyatlar yaratish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi destruktiv an’analarni o‘zlashtirishda kishilarga psixologik madad va yordam ko‘rsatish.
Kasbiy jixatdan o‘zini anglash	Insonning kasbni psixologik imkoniyatlarini kasbiy faoliyat mazmuni va talablari bilan bo‘lgan jixatlarini mustaqil anglab olishi, shuningdek ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda bajariladigan ishidan ma’no topishi.
Kasbiy jixatdan o‘zini asray olish.	Inson shaxsiga yunaltirilgan maxsuldar kasbiy faoliyatda doimiy o‘zini-o‘zi o‘zgartirib turishi, tayyorgarligi va kasbiy imkoniyatini o‘zini ruyobga chikarishi, kasbiy xayotini boshqara olishi, kasbiy rivojlanish va lavozimda kutarilishdagi destruktiv vaziyatlarni yengib o‘tish bilan bog’liqdir.
Professionalizatsiya destruktsiyalari.	Professionalizatsiya jarayonidagi miqdor va sifat o‘zgarishlar, shaxsning rivojlanishi va deformatsiyasi bilan kuzatiladi.
Kasbiy o‘zini-o‘zi faollashtirish	Shaxsning kuchini faollashtirish yo‘li bilan kasbiy rivojlanishni tezlashtirish, normadan ortiq kasbiy faoliyatni namoyon etish, shuningdek turli xil psixotexnologiyalarda qatnashish va boshqalar.

Qishloq xo‘jalik sohasida ishlovchilar odatda juda erta turadi va kech yotadi. Ular mablag‘ni, yoqilg‘ini, o‘g‘itni, yem-xashakni, shuningdek, qoramolning grammalab semirishini, ekilgan paxta va bug‘doy hosiliningssentneri ko‘payishini sarhisob qila bilishi kerak. Yozning jazirama issig‘ida salqin soy, ariq bo‘yida dam olishni hohlaysiz, lekin fermerga dalada yoki fermada ishlashga to‘g‘ri keladi. Kuzning yomg‘irli, qishning sovuq kunlarida pana joyda bekinib, issiq choy bilan isimishni hohlaysiz, lekin fermer hosilni nes-nobud qilmay yig‘ishtirib olish, chorvani kasal qilmasdan qishdan chiqarishni o‘ylab, elib yuguradi. Xullas, fermerga juda ko‘p xo‘jalik masalalarini doimiy ravishda hal etishga to‘g‘ri keladi. Ammo agar katta hosil olinsa, chorva mollari yaxshi semirtirilsa, fermerning mehnati unga nafaqat sezilarli darajada moddiy, balki ma’naviy qoniqish keltiradi. Albatta, bu ish mutaxassis, o‘z ishining ustasi sifatida shug‘ullanishga arziyi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda agrar soha taraqqiyotini ro‘yogba chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko‘tarmoq lozim, fan va texnika hamda agrar sohaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og‘ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iyomon-e’tiqodli insonlar bo‘lib voyaga yetishishsin.

ADABIYOTLAR

1. Норбаев Эшкуват Курбанович, Хужакулов, Абдулазиз Хаким Угли, “Доля затрат на эксплуатацию техники для подготовки кормов” Life Sciences and Agriculture Страницы. 2020.- 21-24
2. Parakhat Berdimuratov, Bakhtiyor Shaymardanov, Dilshod Ruziyev, Abdulaziz Khujakulov, Irina Gorlova and Ohunjon Usarov “Seeder of exact seeding of seeds of cotton on the crest with drip irrigation” E3S Web of Conferences 264, 04044 (2021)
3. Oktabr Dustkabilovich Raximov, Abdulaziz Xakim Ugli Xujakulov, Baxrom Xusanovich Shomurotov, Dilrabo Oktabrova Raximova. Неиспользуемые возможности: дистанционного образования в Узбекистане. Научный журнал. 2021.- Страницы 72-75.
4. Abdulaziz Xakim O‘G‘Li Xujaqulov. Muhandislik ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy tanlovga ta’sir etuvchi omillar. Science and Education. 2023.- Страницы 493-496
5. А.Х.Хужакулов.Значение инновационных технологий в организации самостоятельной работы студентов в системе высшего образования. Вестник науки. 2023.- Страницы 113-117
6. Xujaqulov Abdulaziz Xakim o‘g‘li. Muhandislik yo‘nalishi talabalaring umumkasbiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talablar. Prospects and main trends in modern science 2023.- Страницы 60-63
7. Xujaqulov Abdulaziz Xakim o‘g‘li. Umumkasbiy fanlarni o‘qitish orqali talabalar tomonidan shakllanadigan tadqiqotchilik qobiliyatlari. 2023.- Страницы 321-326
8. Ж.У.Шоназаров, А.Х.Хужакулов.Творческая и инновационная деятельность будущего преподавателя и способы достижения профессиональных навыков. 2020.- Страницы 55-60
9. Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich, Manzarov Yusufjon Khurramovich, Keldiyarova Malika, Hudjakulov Abdulaziz Hakim Ugli. Modern lectures and methods of organizing problematic lectures. Проблемы науки 2020.- Страницы 46-49